

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
KARIMOV E. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

K.Kodirov	
O'zbekiston Respublikasida mahkumlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish	118
B.Jumayev	
Gastronomik turizm tushunchasining paydo bo'lishi va uning tarixiy asoslari.....	122
U.Usarov	
Rossiya imperiyasi rasmiy amaldorlari va taftish komissiyalarining Turkistondagi yer-suv munosabatlariga doir faoliyatiga oid ba'zi mulohazalar.....	129
SH.Tosheva	
VIII – XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida kasbiy o'zlikning o'ziga xos xususiyatlari	133
	ADABIYOTSHUNOSLIK
A.Sabirdinov	
Tuganmas ilhom manbai	138
Q.Yo'ldiyev	
Lirik janr haqida ba'zi mulohazalar	142
G.Mashrapova	
Safar semantikasi va genezisiga doir ayrim mulohazalar	148
SH.Jumanova	
Usmon Azim she'riyatida kuz motivi	151
E.Shevchenko	
O'zbek adabiyot sharhi: boshlanish davridan hozirgi kungacha	155
G.Nazarova	
Ingliz hamda o'zbek adabiyotida mifologik obrazlarning mifologizatsiyasi va ularning o'ziga xosligi.....	161
D.Xusenova	
Lev Tolstoyning hayoti va ijodiy faoliyatida sharqning o'rni.....	165
	TILSHUNOSLIK
X.Maxsudova, SH.Shahobiddinova	
Эргонимларнинг лексик-семантик хусусиятлари	169
N.Achilova	
Nemis va o'zbek tillarida faunaga oid frazeologizmlar tasviri.....	173
Sh.Sultonova, O.Usmonov	
Diniy frazeologizmlarning ichki shakli dinamik hodisa sifatida	178
Z.Akbarova, G.Sodiqova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishning psixofiziologik va psixolingvistik asoslari	182
I.Saydamatov	
Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	186
Sh.Amonturdieva	
Diniy uslubni yuzaga keltiruvchi ekstralingvistik omillar	191
M.Batirxanova	
Somatik frazeologizmlarning tarjima masalalarida pragmatik funksiyalarining tadqiqi	195
N.Djalilova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida talabalarni chet til o'qitish kommunikativ kompetensiyasi	199
A.Zinatullina	
O'zbek va fransuz tillarini tarjima qilishdagi qiyinchiliklar	203
	MATEMATIKA
A.O'rinov, M.Azizov	
Yuqori juft tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to'g'ri to'rtburchakda boshlang'ich-chegaraviy masala	207
K.Xalilov	
Singulyar koeffitsiyentli parabolo-giperbolik tenglama uchun integral shart va Bitsadze-Samarskiy sharti qatnashgan masalalar.....	225
T.Xasanov	
Davriy cheksiz zonali funksiyalar sinfida manbali yuklangan Korteveg-de Friz tenglamasiga qo'yilgan koshi masalasi.....	232

TUGANMAS ILHOM MANBAI
НЕИССЯКАЕМЫЙ ИСТОЧНИК ВДОХНОВЕНИЯ
AN INEXHAUSTIBLE SOURCE OF INSPIRATION

Sabirdinov Akbar Gofurovich¹

¹Sabirdinov Akbar Gofurovich

– FarDU filologiya fanlari doktori.

Annotatsiya

Maqolada Usmon Nosir she'riy mahorati va uslubining o'ziga xosliklarini yoritish maqsad qilingan. Avtobiografik, qiyosiy, tarixiy-funksional metodlar asosida shoir she'rlari tahlilga tortilgan. Muhabbat, bolalik, vatan mavzulari talqini orqali Usmon Nosir she'riyatining XX asr o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati ko'rsatib berilgan. Hassos ijodkor uslubiga xos jihat nozik tuyg'ularni tabiat tasviriga uyg'un ifodalash, o'xshatish, qiyos, taqqos, jonlantirish orqali tasvirdagi hayotiylik, ta'sirchanlikni ta'minlash ekanligi yoritilgan.

Аннотация

Цель статьи - пролить свет на особенности поэтического мастерства и стиля Усмана Насира. Анализируются стихотворения поэта на основе автобиографического, сравнительного, историко-функционального методов. Через интерпретацию тем любви, детства, родины была показана роль и значение поэзии Усмана Насира в узбекской литературе XX века. Характерным аспектом чувственного творческого стиля является гармоничное выражение тонких эмоций в изображении природы, то, что по аналогии, сравнению, сопоставлению оживляет, придает жизненную силу, впечатляющую избранию.

Abstract

The purpose of the article is to shed light on the peculiarities of the poetic skill and style of Usman Nasir. The poet's poems are analyzed on the basis of autobiographical, comparative, historical and functional methods. Through the interpretation of the themes of love, childhood, homeland, the role and significance of Usman Nasir's poetry in the Uzbek literature of the twentieth century was shown. A characteristic aspect of the sensual creative style is the harmonious expression of subtle emotions in the image of nature, something that, by analogy, comparison, comparison, enlivens, gives vitality, impressiveness to the image.

Kalit so'zlar: shoir, tarjimon, dostonnavis, qatag'on davri, o'zbek adabiyoti, tasvir, uslub, XX asr, mahorat, iste'dod, milliylik, detal.

Ключевые слова: поэт, переводчик, дostonnavis, период репрессий, узбекская литература, образ, стиль, XX век, мастерство, талант, национальность, детали.

Keywords: poet, translator, dostonnavis, period of repression, Uzbek literature, image, style, XX century, skill, talent, nationality, details.

KIRISH

Serqirra iste'dod sohibi, otashqalb shoir Usmon Nosir qisqa umri davomida XX asr o'zbek adabiyotini bebaho ijod namunalari bilan boyitdi. Afsuski, uning adabiy merosi ayrim ishlarni hisobga olmaganda, mustaqillik davri talablari asosida keng va chuqur tadqiqqa tortilgan emas. Shoir mahorati, uslubiga xos jihatlarni yangicha qarashlar asosida tadqiq etib, uning o'zbek she'riyati taraqqiyotidagi o'rni aniqlash, badiiy mahorati qirralarini belgilash o'rganiladigan muammolardandir. Shu maqsadda Usmon Nosir she'riyati badiiyati masalasi, uning tasviriy vositalar va detallardan foydalanish talqin hayotiyliigi, jonliligini yuzaga chiqarish uslubini aniqlash maqolaning maqsad va vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Akademik Naim Karimovning ikki kitobdan iborat "Usmon Nosir" va "Usmon Nosirning so'nggi kunlari" kitoblarida shoir tarjimai holi, asarlarining yaratish tarixi, zamondoshlari xotiralari, qatag'on etilishi bilan bog'liq arxiv materiallari asosida keng yoritib berilgan.

Professor Qozoqboy Yo'ldoshning "Yoniq so'z" kitobi, "Usmon Nosir" maqolasida shoir she'riyati umrboqiyiligini ta'minlagan, yuksak mahorati qirralarini ko'rsatgan tasviriy ifoda va vositalar, obrazlilik masalasi keng yoritiladi.

XX asr ikkita jahon urushi, inqilobu davlat to'ntarishlari, qatag'on qirg'inlari bilan tarix sahifalaridan joy oldi. Shuningdek, u Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek,

ADABIYOTSHUNOSLIK

Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirmqul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Rauf Parfi kabi qator adabiyotimizning yorqin yulduzlarini yetkazib berganligi bilan ham ajralib turadi. Ular orasida Usmon Nosir ijodining alohida o'rnini bor.

Usmon Nosir sho'ro davlatining qatag'onga asoslangan siyosati qurboniga aylanib, uning azob-uqubatlarini boshdan o'tkazgan, erta xazon bo'lgan jafokash ijodkor. U 18 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 6-7 yillik vaqt oralig'ida "Quyosh bilan suhbat", "Safarbar satrlar", "Traktorobod", "Yurak", "Mehrim" kabi she'riy to'plamlari, "Norbo'ta", "Naxshon", dostonlarini, "Atlas", "Zafar", "So'nggi kun", "Dushman" dramalarini yaratdi. A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, N.A.Dobralyubov, V.I.Kirshon, J.Bayron, G.Geyne, I.V.Gyote asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qildi.

Usmon Nosir uslubiga xos muhim jihat tabiatning betakror manzaralarini nozik kechinmalariga uyg'un tasvirlashdir. Masalan, "Saman otga minib..." she'riining lirik qahramoni yuragida hamon bahor tarovati bilan borliqda hukmron kuzning betakror go'zalligidan zavqlanadi. Tasvirdagi "sho'x shalolaning xayyo-hay deb ketgan mo'nglaygan sasi", "yo'lda qolib ketgan ufqlarga uzatilgan kun dasti" bizni umr o'tkinchiligi, hayot abadiyligi haqidagi falsafiy mushohadaga chorlaydi.

She'rning

"Saman otga minib
Jilov tutdi kuz:
Tiniq suvlar kechib
Chopari keldi.
Oltin yaproqlardan
Pirpirak o'ynab,
Pastda,
Tepalarda
Shivillab yeldi... [1, 80-81]

satrlarida vaqtning shitob bilan o'tishi jonlantirish, obrazli ifodalash vositasida talqin etiladi. Abstrakt tushunchalar konkret qiyofaga kiradi.

Jim!.. Ufqdan botar quyoshni
Shart kesilgan boshga o'xshatdim.
Parcha-parcha kuygan shafaqlar
Tirqiragan qonni eslatdi! [1, 141]

misralarida minglab odamlarni jisman mavh etgan va etayotgan qattol davrga ishora qiladi. Lekin bu jamiyat insonni nafaqat jisman, balki ma'nan ham xarob etmoqda:

Ki odamning o'ziginamas,
Hissini ham xarob qilsa davr!
Qiyinalaman!.. Yuragimda hovur...
Bu – qarshilik! Yo'q! Gina emas.
Bu – qarshilik! Ko'ring tarixni.

Parvonadek qanoti kuygan,
Bu – qarshilik! Ko'ring tarixni.
Umr tepasida musht tuygan...
Qiyinalaman vijdon bilan man.
Mumkin emas, qarshi turmasdan! [1, 141]

Shoir inson erki, huquqi himoyasiga otlanar ekan, o'z taqdiri haqida ham bashorat qiladi. Chunki, tarix guvoh – bu yo'lda qancha kurashchilarning umri xazon bo'lgan.

O'z zimmamga katta ish oldim:
Ehtimolki, tamom qilmasdan –
Umrimga tugur. Ammo bo'lmaydi
(Ko'nglim o'rniga hech tushmaydi.)
Senga qarshi bosh ko'tarmasdan,
Asrlarni yig'latgan sevgi!..

Usmon Nosir o'xshatishlardan foydalanib tabiatning betakror manzaralarini, nozik his-tuyg'ularni ifodalashga erishadi. Masalan, "Shafaq o'chay deb qoldi..." she'rining uchlik asosidagi bandlanishlarida o'tkinchilik va abadiylik haqidagi falsafiy fikrning qisqa, lo'nda ifodasida muhim o'rin tutgan. Dastlabki band botayotgan quyoshdan ufqning betakror manzarasi – qirmizi rangga burkangan borliq tasviri bilan boshlanadi:

Shafaq uchay deb qoldi
Kaptar qonidek rangsiz...
Ko'zlarimni uzmayman [2, 76]

Lekin bu holdan qayg'uga tushmaslik, quyosh qayta chiqishini unutmazlik kerak. Modomiki, o'tgan qaytib kelmas ekan, ertangi kunni sevinib kutmoq lozim.

She'r

Deding: Endi o'char u!
O'tgan qaytib kelmaydi,
Ertani sevinib kut...

tarzidagi nekbin da'vat bilan yakunlanadi. Yoki, ilk kuz kechasining orombaxsh, yoqimli holati o'xshatish vositasidagi "Sentabr kechasi salqin. Onam kabi yumshoq, beozor" satrlarini ifodalashda tabiatning muayyan onlari lirik qahramon uchun aziz siymoni yodga soladi. Tabiiyki, ushbu chog'da bolalik xotiralar jonlanadi.

So'nggi band

Shu damda men, go'yo sevinchdan
Qanot yasab, uchardim baland.
O'sha baland osmon tubidan
Yoshligimni tabrik aylardim [2, 74]

ifodasi bilan yakunlanadi.

Shoir milliylikni o'xshatishlar vositasida yuzaga chiqaradi. Quyidagi she'rning dastlabki bandi go'zal qiz ko'zlarini dengizga qiyoslash orqali milliy qiyofani yuzaga chiqarsa, keyingi banddagi holatda ham milliy ifoda mavjud:

Asli ko'k ko'z ekan – ko'z degan,
Xuddi dengiz... Ishqu hurmatni
Kema qilib, yuzsang o'shandan,
Anglar eding butun ne'matni!

Ko'rasanmi, qanday chiroyli
Tikilganча boqib tursa u?
Chidolmayman, pishgan tut kabi
Oyog'iga to'kilmasdan duv [1, 151]

Ushbu o'rinda akademik N.Karimovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish o'rinlidir: "Odatda el-yurt jabrdiyda kishilarni avliyolar deb atab, ularni tavof etib keladi. Agar ana shu aqidaga rioya etsak, uzoq yillar davom etgan qora qirg'inning Munavvar qori, Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir singari hisobsiz qurbonlarini avliyolar sirasiga kiritish mumkin bo'lardi. Ular bolshevizmning o'z yurtlariga ezgulik olib kelmasligini, aksincha, XX asrning izchil mustamlakachilari bo'lib qolishlarini karomat qilgan va ulug' ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan shu tabarruk tuproqning – o'zbek diyorining mustaqil bo'lishini orzu qilgan edilar. Shu ma'noda ular o'zbek halqining ziyarak ko'zlari edilar" [3, 3].

Usmon Nosirning ona yurtga bo'lgan beqiyos muhabbati asarlarida barq urib turadi. "Yurak" she'ridagi ushbu o'tli satrlarda borlig'ini vatan uchun fido qilishga shay turgan olovqalb shoir qiyofasini yaqqol ko'ramiz:

Yurak, sensan mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.

Itoat et!
Agar sendan

ADABIYOTSHUNOSLIK

Vatan rozi emas bo'lsa,
Yoril, chaqmoqqa aylan sen,
Yoril! Mayli, tamom o'lsam!.. [1, 93]

Shoir goh bolalikni shirin entikish bilan, goh qayg'u-hasrat bilan yodga oladi. Masalan, "Bolaligimga" she'rining

Kapalakning gul emganin ko'rdim
Eslab ketdim seni, malagim...
Sen berdingmi, shuncha shirin she'rni,
Ey, barglari ko'm-ko'k palagim [1, 98]

ifodasida bolalik beg'ubor malakka, barglari ko'm-ko'k palakka o'xshatiladi. Shirin she'rning tug'ulishi bolalik bilan bog'liqligini alohida qayd etadi.

"Qora satrlar" she'rida esa lirik "men" bolalikni achchiq xotiralarini shunday bayon qiladi:

Otam o'ldi, men sarson bo'ldim,
Shum yetim, – deb so'kdilar meni.
Ajab kunga muhtalo bo'ldim,
Ko'chalarga quvdilar meni...
O'sha kunlar dilimda hayot.
(Og'ir g'amni unutib bo'lmas!)
Tur! – dedilar, – tur, yetimcha zot!
Ilojim yo'q, turaman bir pas [1, 134-135].

Professor Q.Yo'ldosh ta'kidlaganidek, "Shaxsiyatiga xos mag'rurlik, qaysarlik, ayni paytda mislsiz mehnatkashlik, bo'ysunmaslik, tengsiz kuchli xotira, tinimsiz o'qib-o'rganish stixiyasi, rostgo'ylik singari jihatlar shoir ijodining o'ziga xosligini belgilaydi. Usmon Nosirgacha bo'lgan o'zbek she'riyatida sokinlik, andisha, eng po'rtanali ro'hiy holatlarni ham imkon qadar vazminlik bilan ifoda etish ustuvor edi. Yosh shoir bu an'analar yoniga Ovrupa adabiyotidagi ochiqlikni, shiddatni, tuyg'ular silsilasi, hissiyotlar dolg'asini tizginlamaslikni olib kirdi" [4, 338].

Usmon Nosir "Bog'im" nomli she'rida "Bargdek uzilib ketsam, Unutmas meni bog'im, Ishimni hurmat qilur, Gullardan haykal qurur. Ming yillardan keyin ham Unutmas meni bog'im!" deya bashorat qilgan edi. Darhaqiqat, ushbu yilda 110 yillik tavalludi keng nishonlanayotgan Usmon Nosir asarlari ko'plab avlodlarning qalb mulki, kelgusi ijodkorlarga esa o'rganish manbai bo'lib qolishi shubhasizdir.

XULOSA

Usmon Nosir tabiatning betakror ranglari olamini nozik tuyg'ular bilan uyg'unlikda tavrirlarkan shu orqali davrga, qatag'on jamiyatga aybnomani ifodalashga erishadi. Shoir bir qarashda g'ayrioddiy tuyulgan ifodalar vositasida betakror ifodalarga baxt obrazli tasvirni yaratadi. Badiiy tafsil, turli tasviriy ifoda va vositalar asosidagi she'riy kartinalar Usmon Nosir she'riyatining ta'sirchanligini, jozibadorligini ta'minlagan muhim jihatlardandir. Ulug' ijodkor Sharq va G'arb she'riyati an'alarini o'z asarlarida sintezlashtirgan iste'dod sohibidir.

ADABIYOTLAR:

1. Usmon Nosir. Танланган асарлар. Икки томлик. Биринчи том. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1969. – 182 б. (Usmon Nosir. Избранные произведения. Два тома. Первая крыша. - Ташкент: Издательство художественной литературы Гулом.)
2. Usmon Nosir. Юрак. – Тошкент: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – 280 б. (Usmon Nosir. Сердце. - Ташкент: Гуломское издательство литературы и искусства.)
3. Каримов Н. Usmon Nosirning сўнги кунлари. – Тошкент: Шарк, 1994. – 276 б. (Каримов Н. Последние дни Османа Насира. - Ташкент: Шарк)
4. Қозоқбой Йўлдош. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б. (Казахбой Юлдош. Горящее слово. - Ташкент: поколение)